

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TO'Y -
TOMOSHA VA XALQ BAYRAMLARI****Toshtemirov Abduvalixon Abdivohid o'g'li**

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18410775>

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida shakllangan to'y-tomosha madaniyati, xalq bayramlari va ommaviy marosimlarning asosiy xususiyatlari yoritiladi. Tarixiy manbalar va adabiy asarlar asosida o'sha davrdagi musiqiy ijrochilik, raqs, dorbozlik, masxarabozlik, qo'g'irchoq teatri, chavandozlik va maydon o'yinlarining rivoji tahlil qilinadi. Shuningdek, saroy bazmlari, Koni Gil singari sayilgohlarda o'tkazilgan ommaviy bayramlar, ularda san'atkorlar ishtiroki va tomoshalarining ijtimoiy ahamiyati haqida qisqa ilmiy izohlar beriladi.

Kalit so'zlar: To'y-marosimlar, xalq bayramlari, tomoshalar, musiqiy san'at, raqs, dorbozlik, masxarabozlik, qo'g'irchoq teatri, maydon o'yinlari, saroy bazmlari, sayilgohlar, Koni Gil sayilgohi.

Amir Temur va Temuriylar davri Sharq uyg'onishining yuksak bosqichlaridan biri bo'lib, bu davr nafaqat siyosiy hamda harbiy muvaffaqiyatlari bilan, balki madaniy hayotning mislsiz ravishda ravnaq topishi bilan ham ajralib turadi. Tarixiy manbalar, xususan, sayohatnoma va memuarlar, saroy hujjatlari, miniatyuralar hamda adabiy asarlar o'sha davrning ijtimoiy-madaniy hayoti nihoyatda sermazmun va boy bo'lganini ko'rsatadi. Ularda to'y-marosimlar, xalq bayramlari, sayil-tomosha, musiqiy bazmlar, saroy tantanalari, maydon o'yinlari va ommaviy teatrlashtirilgan namoyishlarning batafsil tasvirlanganligi bu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Amir Temur davlatida san'atkorlar, musiqachilar, raqqosalar, dorbozlar, masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar va boshqa ijrochilar alohida e'tibor bilan qo'llab-quvvatlangan. San'at jamoalari maxsus guruhlariga ajratilgan bo'lib, ular davlat tantanalari, diplomatik uchrashuvlar, saroy bayramlari va xalq ommasi uchun o'tkaziladigan katta tomoshalarda faol ishtirok etganlar. Koni Gil singari mashhur sayilgohlar, Samarqanddagi maydonlar, shohona bog'lar va maxsus qurilgan sahnalar ushbu marosimlarning asosiy maskanlari edi. Minglab professional ijrochilar ishtirok etgan teatrlashtirilgan tomoshalar, qo'shiq va raqs ansamblari, qudrat sinovlari, chavandozlik namoyishlari hamda xalq o'yinlari bu davrning madaniy yuksalishini yaqqol aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Amir Temur va Temuriylar davri tomosha san'ati buyicha maxsus manbalar juda oz. Quyida asosan to'rt toifa manbaga tayanib fikr yuritiladi. Bir toifasi asosan siyosiy voqealar, jangu - jadallar ta'rifiga bag'ishlangan tarixiy asarlar. Hofizi Abru, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamirlarning tadqiqotlari shular jumlasidan. Ularda ba'zan san'atga oid qaydlar, dalillar uchraydi.

Ikkinchi toifa manbalar voqeiy hikoyatlar, safarnomalardan iborat. Bunday manbalar orasida ispan elchisi Rui Gonzalez de Klavixoning «Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Zayniddin Vosifiyning

«Badoye' ul vaqoye'» asarlari tomosha san'atlari xususidagi ma'lumotlarning ko'pligi va ishonchliligi bilan alohida qimmatga ega.

Uchinchi toifa manbalar musavvirlar tomonidan maxsus ishlangan va turli xil qo'lyozmalarga lavhalar tarzida kiritilgan rasmlardir. O'yin va tomoshalar aks ettirilgan bunday rasmlar tomosha san'ati buyicha manba tarzida qabul qilinishi mumkin. chunki musavvirlar hatto afsonaviy syujetni aks ettirayotganlarida ham o'z davrlari va o'z tasavvurlari doirasida ijod qiladilar. Nihoyat, tomosha san'atiga oid ma'lumotlar shoirlarning ijodida sochilgan bo'ladi. Ularni manba sifatida qarash mumkin, zeroki, shoirlar ham qanday mavzu ustida qalam tebratmasinlar, o'zlari yashab turgan hayotdan. voqelikdan, qarashlardan oziqlanadilar. Bu o'rinda ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida injudek sochilgan ma'lumotlar inobatli va ishonarlidir.

Manbalar orasida Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomayi sultoniyyoxud javonmardlik tariqati» risolasi alohida qimmatga ega, chunki unda ma'raka va aksar ijrochilik san'atlari, o'yin va tomoshalar haqida qiziqarli ma'lumotlar, nazariy xulosalar berilgan. Mana shunday manbalarda sochilgan ma'lumotlarni sinchiklab terib, bir-biriga solishtirib. Amir Temur va Temuriylar davri o'yinlari va tomoshalarini yaxlit tasavvur qilishga, ularning tarkibi, tur va turkumlari, o'zaro munosabatlari doirasini aniqlashga harakat qilindi.

Muhokama va natijalar. Amir Temur o'z hukmronligi davrida san'at, shu jumladan o'yin va tomoshalarining taraqqiy etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Manbalarda Amir Temur va Temuriylar davridagi davlat bayramlari munosabati bilan uyushtirilgan sayillar, namoyish va tomoshalar haqida anchagina ma'lumotlar saqlanib qolgan. Eng katta to'y va bayramlar Samarqand, Shahrisabz va Hirotida o'tkazilgan, ularda o'n minglab kishilar qatnashgan.

Amir Temur bazmlari, to'ylari, bayramlariga oid dastlabki ma'lumot 1360-yilga tegishli. SHarafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Sohirqiron Movarounnahrda Bayon Sulduzni quvishda yordamlashgan Amir Xizr Yasavuriy sharafiga Shaxrisabzning Ulug' Maydon manzilida katta ziyofat va bazm beradi [1]. Amir Temur 1367 yilda Amir Husayn bilan yarashib, Qunduzda uchrashadi. Shu munosabat bilan «bir necha kun uzluksiz to'y berib, o'yin-kulgu va xursandchilik qiladilar» [2]. 1388-yili Samarqandda Amir Temur o'g'illari Umarshayx, Shohruh, nevaralari Muhammad Sulton [3] va Pir Muhammadni uylantirish munosabati bilan Bog'i Bihishtda, 1392-yilda Rustam, Abu Bakr ismli nevaralarini uylantirish munosabati bilan Konigilda katta to'y bergan [4]. 1391-yili Amir Temur Qunduzcha degan joyda To'xtamishni yengganligini ommaviy bayram sifatida nishonlashga farmon beradi. «Ziyofatlarda noz-ne'matlar oltin idishlarda, oltin jomlarda tortiladi», maxsus musikalar yangraydi. Bu voqea Samarqandda ham bayram qilinadi [5].

Konigil Samarqand yaqinidagi xushhavo, atrofi bog'-u rog'larga burkangan

ajib bir sayilgoh bo'lib, umumxalk va davlat bayramlarining deyarli barchasi o'sha joyda utkazilgan.

SHarafuddin Ali Yazdiy ko'shk, mezana va chortoqlar sonini 104 ta deb ko'rsatadi. Ko'shk, mezana va chortoqlarning orqa tomonida rastalar bo'lib, ularda ham yuzlab karnaychi va surnaychilar, afsungar va nayrangbozlar, mukallid va masxarabozlar o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Jumladan, Dorbozlar ham. Sharafuddin Ali Yazdiy ularni bozinger (o'yinchi) deb ataydi. Uning tasvirlashicha, dor juda baland tikilgan bo'lib, naq ko'k toqiga tegib turarkan,

dorboz oyga emas, quyoshga o'xsharkan. Klavixoning yozishicha, dor shoh chodiri ro'parasidagi maydonda o'rnatilgan ekan [6].

Bundan tashqari, maxsus maydonlarda kurash, chavandozlik va fil o'yinlari ham ko'rsatilgan. Bu to'g'rida ham Klavixo ma'lumotlari inobatli. Klavixo o'yinchi fillarga dastlab Bog'i Dilkushoda duch kelgan. Sayilda esa Klavixo bira-to'la 14 ta filni ko'rgan. U yozadi: «Shohning 14 ta fili bo'lib, ularning ustida yog'och ayvonchalar bor edi. Shohi pardalar bilan o'ralgan har bir ayvonchani ustiga to'rttadan sariq va yashil bayroq tikilgan. Har bir ayvonchada besh-oltitadan odam, shuningdek, har qaysi fil gardanida sim qamchin ushlagan yana bir kishi bo'lib, filni yugurib har xil o'yinlar kursatishga majbur etardi.» [7].

Manbalarga qaraganda, Amir Temur tomosha san'atlari ichida raqsga alohida e'tibor bergan. Shunday bir lavha muarrix Ibn Arabshoh tomonidan qayd etiladi: «Chang, ud, urgun, g'ijjak, nay navolari yangrab, ashula avj olib, raqqosalar o'yinga tushib, nihoyat o'yin-kulgi, xursandchilik Amir Temurni to'lkinlantirib, shod-xurramlig-u mag'rurlik uni kulgutdi. U madadkordan yordam so'rab tik turgach, keksaligiga qaramay o'rtada tebrana-tebrana raqsga tushdi. Shunda, Amir Temur boshidan javohirlar, marvaridlar, kumush va tillolar, turli-tuman nafis, qimmatbaho ashyolar sochdilar ... Jamoat tarqamaguncha Amir Temur shu ahvolda davom etdi» [8].

Amir Temur hayotligida rasm bo'lgan bayram, sayil, namoyish va tomoshalar uning vafotidan keyin ham davom etgan. Negaki, aksar Temuriy shohlar Sohibqiron rasm-rusumlari va odatlariga sodiq qolishgan. Chunonchi, Hirotda 1412-yilda Shohruh va 1469-yilda Husayn Boyqaro tomonidan, 1462-yili Samarqandda Abu Said Mirzo tomonidan katta bayram va tomoshalar uyushtirilgan.

Mirzo Ulug'bek an'anaviy Navro'z va Mehrjon bayramlari yaxshi o'tishini ta'minlab, rag'batlantirib turgan. Shuning uchun ham o'sha davrning taniqli shoiri Sakkokiy o'zining Ulug'bekka atab yozgan qasidalaridan birida butun bir bobni navro'zga bag'ishlaydi. Unda, jumladan, shunday satrlar bor:

Guliston ahlina bu kun erur ham iydi Navro'z,
Ular gul sochdilar, man ham keturdim xush bu halvoni.
Yoxud gul vaslalaridin tikib bir xil'ati zebo,
Bu majlisga keturmakka tiladim asli voloni [9].

XV asr o'rtalarida Shohruh vafotidan keyin kuchaygan o'zaro nizolar, taxt talashuv oqibatida tomosha san'ati. ayniqsa ommaviy bayramlarga putur yetadi. Sulton Abu Said va uning o'g'illari hukmronligi davrida bir oz jonlanish ro'y beradi. Zahiriddin Muhammad Boburning guvohlik berishicha, Sulton Abu Saidning o'g'illari Sulton Ahmad va Umarshayx maydon tomoshalari va bellashuvlarni yoqtirgan. Sulton Abu Saidning uchinchi o'gli Sulton Mahmudning masxarabozlar to'dasi ham bo'lgan.

Husayn Boyqaro davrida mingga yaqin ijodkor faoliyat ko'rsatgan, maqomxonlik, raqs, qissaxonlik, voizlik, masxara, taqlid maydon tomoshalari yaxshi rivojlangan. Aynan shu davrda Amir Temur zamonidayok shakllana boshlagan tomosha san'ati tizimi nihoyasiga yetdi. Bu davrda musiqa va uning tarkibiy qismlari bo'lmish cholg'u, ashula, bastakorlik, musiqa tarixi va nazariyasiga oid yo'nalishlar yaxshi rivojlandi. Shu bilan bog'liq raqs san'ati, ayniqsa, erkaklar ijro etadigan raqslar taraqqiy etdi. Raqslar cholg'uchilar dastasi kuylariga, ba'zan doira usuliga ijro etilgan. Husayn Boyqaro amirlaridan bo'lmish buyuk raqqos Sayyid Badr sozanda va xonandalar jo'rligida raqsga tushgan. «Sayyid Badr bisyor zo'r va asru shirin harakot kishi edi.

- deb yozadi, Bobur. - Ajab sohib usul kishi edi. Turib xub raks qilur edi» [10]. Bobur 1506-yili Hirotda 20 kun mehmon b'lib turarkan, Muzaffar Mirzo huzurida Sayyid Badr raqsini o'z ko'zi bilan ko'rgan va uning chinakam ijodkorligiga tan bergan. Sayyid Badrga Jaloliddin Mahmud naychi, Shodi changchi, Hoji Hofiz, Mirjon Hofiz jo'r bo'lib turishgan. Bazmda Katta Moh va Kichik Moh degan rakkoslar, mukallidlar ham qatnashgan. Bobur sharafiga berilgan bazmlardan birida Hirotda unga hamroh bo'lib yurgan Yusuf Ali Ko'kaldosh ham o'ynagan. «Sohib usul kishi edi, yaxshi raqs qildi», deb yozadi Bobur bu xususda [11]. Maqsudali, Mohchuchuk degan raks ustalari to'g'risida ham ma'lumot saqlangan.

XV asrning ikkinchi yarmi - XVI asr boshida sufiy tariqatlari orasida zikri samo keng yoyilgan. Sozanda, xonanda, o'yinchilarning ba'zilar mutasavvif bulishgan, asosan naqshbandiya tariqatiga ergashib, zikri samo qilib turishgan. Zikri samo Kamoliddin Behzodning «Darveshlar raqsi» mo'jaz rasmi va boshqa shu kabi miniatyuralarida o'z aksini topgan. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida an'anaviy teatrning qissago'ylik, voizlik, maddohlik kabi turlari yaxshi rivojlangan. Ta'sirchanligi, romantik ruhi bilan ular zikri samoga yaqin. Ammo ular tor doiraga emas, kupchilik tomoshabinlarga muljallangan.

XV asrning birinchi yarmi - XVI asr boshidagi an'anaviy kulgi teatri ham e'tiborlidir. Bunda masxaralar, mukallidlar hamda balixago'ylik bilan so'z va she'r to'kib kishilarga zavq bag'ishlovchi zariflar keng faoliyat ko'rsatishgan. Masxaralar 4-5 kishi bo'lib to'y va bayramlarda xizmat qilishgan. Ular maxsus libos, qalpoq, niqob, yasama soqol kabilardan foydalanib, jamiyat hayoti va odamlar xulk-atvoridagi nuqsonlar ustidan kulishgan. Bu davrda G'iyos masxara mashxur bo'lgan. Masxaralar ko'prok ma'raka va maydonlarda chiqishgan bo'lsa, mukallidlar o'z kiyimlarida kichik yig'inlarda ko'prok so'z va yuz-ko'z ifodalari bilan hayvonot, qush va odamlar taqlidini qilib kuldirishgan. Bu sohada Abdullo Devona, Xoja Dehdor, Amir Nizom mukallid, Mir Murtoz (Vali Shaloyin) mashhur bo'lishgan. Bu davrda qo'g'irchoq uyini keng rasm bo'lgan. Bu o'yin qo'g'irchoqlarni ko'lga kiyib iplar vositasida va fonuslarga (balki matolarga ham) suratlari tushirilib o'ynatiladigan tomoshalardan tashkil topgan. Ular «chodir jamol», «chodir xayol» va «fonus xayol» deb yuritilgan. Shundan ayniqsa, ko'lga kiyib o'ynatiladigan «chodir jamol» turi hayotiy voqealarni yoritishi, qahramonlarning xalqchilligi, ijro etishda qulayligi bilan Movarounnahr va Xurosonda oddiy kishilar orasida keng shuhrat topgan.

Qo'g'irchoqchilarning tomoshalari to'g'risida Alisher Navoiyning «Xamsa»sida va Husayn Voiz Koshifiy risolasida qiziqarli ma'lumotlar saqlangan.

Husayn Voiz Koshifiy Chodir jamol tomoshasi xususida shunday deydi: «Bir lahv hangomasida hozir bo'ldim, boshiga chodir tortib va undan ikki surat (qo'g'irchoq) ko'rsatib o'tirgan kimsani ko'rdim. U gohi erkak ovozi bilan bir surat tilida savol berardi, gohi boshqa surat tilida qizning ingichka va nozik ovozi bilan javob berardi. Holatini o'zgartirmasdan so'zlarni chunon aytardiki, har

xil ovozda aytilgan savol va javoblarini etishish mumkin edi ... Bu hammasi chodir ichidagi kishining qavlu fe'li ediki, men bundan taajjublandim» [12].

Nihoyat, bu davrda hozirgi «xalk sirki» atamasiga to'g'ri keladigan rang-barang tomoshalar ham ko'b bo'lgan. Ayniqsa, dor o'yinining e'tibori baland bo'lib, hech bir bayram usiz o'tmagan. Aslzodalar ham, xalq ham dorbozlikni mardlik va poklik namunasi deb unga e'tikod ko'ygan. Dor ustida, chig'riqlarda dorbozlar o'z mahoratlarini namoyish etsalar, dor tagida sho'badabozlar, olov purkovchilar, xanjar yutuvchilar, kosa va likopcha uynatuvchilar,

yog'och ot va yog'och oyoq ijrochilari, muallaqchilar, chambardan sakrovchilar, besuyaklar o'yin kursatganlar.

Bu davrda Hirotda faoliyat ko'rsatgan Bobo Jamol, masalan, bir o'zi shatranjboz maymunni, «o'g'ri»ni topib beruvchi ko'k echkini, Chamandar ismli eshakni, sepoya ustiga chiqib nag'ma ko'rsatuvchi tuyani, otilgan tangalarni havoda ilib oluvchi qushni gapga solib, turli murakkab topshiriqlarni bajartirib, ma'rakani qizitgan.

Shuningdek, maydonlarda, to'yxonalarda, sayilgohlarda surnay chalib ilon o'ynatuvchilar, «hazil kitobi» da har xil suratlar paydo qiluvchi hamda shishadan va tunukadan yasalgan xar xil idishlar yordamida yo'q narsalarni paydo, bor narsalarni g'oyib qiluvchi ko'z bog'lovchilar, odamlarni turli holatlarda qotirib quyuvchi, ma'lum topshiriqlarni bajartiruvchi afsungarlar, mis kosachalar ostidagi soqqalarni o'ta chaqqonlik bilan biridan biriga o'tkaza oluvchi huqqabozlarni ko'plab uchratish mumkin edi. Bulardan tashqari, chavandozlikdan ajralib chiqqan ot uyini, kuch sinovi musobaqasi sifatida paydo bo'lib, so'ng sof tomoshaga aylangan zo'rgarlik ham tanilgan bo'lib, san'at darajasiga ko'tarilgan.

«Boburnoma»da Hulhul enaga degan ayol masxara ham tilga olinadi. «Hulhul enaga kelib, menga bisyor shaloyinliqlar qildi», - deb yozadi Bobur [13].

Bobur zarofatga, hazil-mutoyibaga ham ba'zida e'tibor bergan. O'z yaqinlari bilan ko'pincha Andijon shevasida hazil-mutoyiba qilib turgan. Shulardan biri Darvesh Muhammad sarbondir. Bobur uni «xoslar tayanchi, ixtisos egalarining zubdasi (sarasi)» deb ataydi [14]. Bundan tashkari. Bobur atrofida Mir G'iyos, Vays Log'ariy, Amir Ayyub degan so'z ustalari zariflar bo'lgan ekan.

Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomayi sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati» asarining 6-bobini ma'raka ma'nolariga barishlaydi. Voiz Koshifiy ma'raka tutuvchilarni uch toifaga, ya'ni suz ahli, zo'r ahli va o'yinchilarga ajratadi va har toifaga alohida ta'rif-tavsif beradi. So'z ahliga maddohlar va g'azalxonlarni, qissago'y va qissasozlarni, hatto meshkobchi, dorifurush, gazmolfurushlarni ham kiritadi. Zo'r ahliga polvonlar, toshotarlar, gurzibonlar, zo'rgarlar, dorbozlar, hatto loy tashuvchilar, hammollarni ham qo'shadi. Tomosha ko'rsatuvchi o'yin ahli uch toifa bo'ladi deb kosabozlar, qo'g'irchoqbozlar va soqqabozlarni ko'rsatadi. Koshifiy o'z asarida barcha ijrochilarni alohida tavsiflaydi. Shundan kurashga, masalan, ilm bilan boglangan kuch, amaldagi ilm, «odamlar ko'p qiziqadigan hamda sultonlar, shohlarga maqbul bo'lgan hunardir», degan ta'rif beriladi. Kurash ikki turdan iborat deb ko'rsatiladi: birinchisi – qabz usuli, ya'ni ko'l ushlab kurash tushish, ikkinchisi - iltiror, ya'ni erkin kurash. Zo'rgarlar odam ko'tarib, tosh va suyak sindirib, tosh otib, tegirmon toshini ko'tarib, fil bilan olishib o'z kuch va mahoratlarini namoyish etganlar. Koshifiy kamondan o'q uzish, sakrash va hatto dorbozlikni ham shu toifaga qo'shadi. Haqiqiy zo'rgar kuch-quvvatga uchmasligi, nafs havosidan voz kechishi lozim, deydi [15].

Teatrlashgan marosimlarga Navro'z va Mehrjon bilan bog'liq xilma-xil qiziqarli, uyushgan ommaviy sayillar, urf-odatlarini, sunnat to'yi va uylanish marosimlarini, qizil gul bayramini, zardushtiylik bilan bog'lik ba'zi sayillar, uyini va tomoshalarni, shuningdek, kelib chiqishi hiyla qadimiy davrlarga borib taqaluvchi zikri jahriya va sadr yig'inlarini kiritish mumkin. Teatrlashgan namoyishlarga avvalambor suvga bo'lgan e'tiqoddan kelib chiqqan «Sus xotin», «Ho'bbim» marosimlarini, darvesh va qalandarlarning maxsus liboslarda to'da-to'da bo'lib bayt va qo'shik aytib yurishlarini, shuningdek, hunar va san'atning birgaliklagi umumxalq namoyishlarini kiritish bo'ladi.

Amir Temur va Temuriylar davrida o'yin va tomoshalar silsilasida maydon tomoshalari alohida ajralib turgan. Zardushtiylik e'tiqodi bilan bog'liq ba'zi tomoshalar ham maydonlarda ko'rsatilgan. Maydon tomoshalari orasida ot bilan bajariladigan poyga, iloq chopish (ko'pkari), otdan ag'darish, chavgon, kabok o'yin kabilar, haqqoniy kuch sinovi hisoblanmish kurash (go'shtingirlik), qilich, nayza, gurzi va boshqa jangovar qurollar bilan o'tadigan bellashuvlar, shuningdek, qo'chqor, xo'roz urishtirish kabi qadimiy o'yin va musobaqalar yetakchilik qilgan. Maydon tomoshalarida ko'p sonli chavandozlar, pahlavonlar, kamonboz va qilichbozlar, boshqa o'yinchilar qatnashgan. Tomoshabin sifatida butun axoli jalb etilgan.

Xulosa. Amir Temur va Temuriylar davrida shakllangan to'y-tomosha, xalq bayramlari va ommaviy marosimlar o'zining ko'lami, badiiy mazmuni va tashkiliy mukammalligi bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalar hamda adabiy-ma'naviy merosdan ma'lum bo'lishicha, ushbu davrda san'atning deyarli barcha yo'nalishlari - musiqiy ijrochilik, raqs, dorbozlik, masxarabozlik, qo'g'irchoq teatri, chavandozlik va maydon o'yinlari yuqori darajada taraqqiy etgan. Minglab ijrochilar ishtirokidagi teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalar o'z davri uchun noyob madaniy hodisa bo'lib, ular davlat tantanalari va xalq bayramlarining ajralmas qismiga aylangan.

Shunday qilib, Amir Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyo badiiy madaniyati, shu jumladan tomosha san'atlari gullab-yashnadi. Ham shahar, ham qishloq va sahro madaniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'yin, tomosha, bayram, teatrlashgan marosim va namoyishlarning butun bir tizimi vujudga keldi. Shular hammasi kasb-kori, nasl-nasabi, milliy-etnik kelib chiqishi turlicha bo'lgan kishilarni birlashtirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan Adabiyot va Manbalar:

- 1.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan O. Bo'riyev tarjimasi. Toshkent – 1994, 69-70-b.
- 2.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan O. Bo'riyev tarjimasi. Toshkent – 1994, 180-b.
- 3.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan O. Bo'riyev tarjimasi. Toshkent – 1994, 179-b.
- 4.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan O. Bo'riyev tarjimasi. Toshkent – 1994, 137-b.
- 5.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan O. Bo'riyev tarjimasi. Toshkent – 1994, 137-b.
- 6.Rui Gonsales de Klavixo. Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. Ochil Tog'ayev tarjimasi. "San'at", 1990. Ng 8, 158-b.
- 7.Rui Gonsales de Klavixo. Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. Ochil Tog'ayev tarjimasi. "San'at", 1990. Ng 8, 158-b.
- 8.Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob. 312-313-b.
- 9.Amir temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. 1968, 192-b.
- 10.Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. 2-j. Toshkent, 1968, 242-b.
- 11.Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. 2-j. Toshkent, 1968, 277-b.
12. Husayn Voiz Koshifi. "Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" risolasining "Dar sharhi lu'batbozon" fasli. R. A. Galunov tomonidan 1929-yili aslida va rus tiliga o'girilgan tarjimada e'lon qilingan. "Iran". T. 2. L., 1928, s. 47-52.



- 13.Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. Toshkent, 1968, 71-72-b.
- 14.Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. Toshkent, 1968, 294-b.
- 15.Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N. Komilov tarjimasi. Toshkent, 1994, 89-91-b.

